



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 206 sahifa,
16-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati	15
<i>Xurramov Anvar Vafqulovich</i>	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati	19
<i>Olim Ziyoyev Toshpulatovich</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	26
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora</i>	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi	30
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari	34
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi	40
<i>Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi</i>	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri	44
<i>Kushakova Nargiza Islambaevna</i>	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes	47
<i>Majitova Munisa Oybek qizi</i>	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	51
<i>Normurodova Qunduz Tursun qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish	54
<i>Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li</i>	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	58
<i>Po'latova Sitora Olimjonovna</i>	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari	62
<i>Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich</i>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
<i>Shomurotova Sh. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari	70
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
<i>Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi</i>	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
<i>Набиев Абдулло Абдувохидович</i>	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari	88
<i>Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna</i>	



Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy fazilatlarini shakllantirish	91
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi</i>	
Ekologik muammoli vaziyatlar orqali kimyo fanida kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi	96
<i>Ibodullayeva M. I., Dinnazarova F. S.</i>	
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'limni tashkil etish metodikasi	101
<i>Saydullayev Zafar Erkinovich</i>	
Talabalarni milliy hunarmandchilik vositasida samogen tarbiyalashda tarixiylik tamoyili	104
<i>Allanov Shuxrat Qilichovich</i>	
"Harry Potter" asarining o'zbekcha tarjimasida stilistik vositalarni qayta yaratish masalalari	108
<i>Fayziyev Baxodir Baxshilloevich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishning integratsiyalashgan texnologiyalaridan foydalanish	112
<i>Imamova Nilufar Zabiylulla qizi, Nurmatova Gulchexra Baxadirovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari	116
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash	119
<i>Eshonqulova Ma'suda Habibovna</i>	
Yosh oilalarda nikoh barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	123
<i>Islomova Ozoda Isomiddin qizi</i>	
Aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish metodologiyasi	127
<i>Abdullayeva Maftuna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhit yaratishning pedagogik ahamiyati	131
<i>Turayeva Gulchexra Urayimovna, Ziyaeva Umida Xolmat qizi</i>	
STEAM asosida kollaborativ ta'lim muhitida metakompetensiyalarni rivojlantirish	135
<i>Axmadova Malika</i>	
Yosh sportchilarni sportga yo'naltirish va sportchilarni tanlash muammolari (futbol sport turi misolida)	139
<i>Xotamov Jaloliddin Xusniddin o'g'li</i>	
Biologiyada amaliy tajribalar o'tkazishning zamonaviy virtual yechimlari	143
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati	146
<i>D. P. Xodiyeva, M. Sh. To'rayeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish metodikasi (texnologiya darslari misolida)	150
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Jurayeva Ozoda Ortiq qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'rgatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish	154
<i>G'. Yu. Eshmirzayev</i>	
O'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kimyo ta'limining o'rni va o'ziga xos jihatlari	157
<i>Kamolova Nargiza Ibragimovna</i>	
Bilingvizm (ikki tillilik) sharoitida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	161
<i>Mapruza Embergenova</i>	
Zamonaviy jamiyatda gender sotsializatsiyasi va psixologik jins xususiyatlari: maskulinlik, femininlik va androginlikning empirik tahlili	167
<i>Nasrullayeva Asolat Abdumalik qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda chiziqli tenglamalar sistemalari va ularning amaliy tatbiqlarini o'qitish haqida	171
<i>Qushmurotov Umurbek Ibadillayevich</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalari	177
<i>Raximova Nigora Atakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash orqali nutqiy qobiliyatini rivojlantirish ..	180
<i>Xo'jayeva Durdonaxon Maqsud qizi, Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna</i>	
Pul qadriyatining o'smirlik davrida shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy, ijtimoiy va psixologik omillar: iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixodinamik yondashuvda tahlili	184
<i>Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna</i>	

O'smirlarda koping xulq-atvor shakllanishida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari	189
Yarmatova Sanobar Jo'rayevna	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlar	193
Norquvatova Diyora Davron qizi	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	197
Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	
Системно-функциональное моделирование и эмпирический анализ нравственно-волевой детерминации в профессиональной деятельности военнослужащих	201
Зохилов Нодирбек Улугбекович	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA XAVFSIZ PSIXOLOGIK MUHIT YARATISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Turayeva Gulchexra Urayimovna

Ziyaeva Umida Xolmat qizi

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi metodistlari

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xavfsiz psixologik muhitni shakllantirishning pedagogik hamda ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Erta yoshdagi bolalarda emotsional barqarorlik, o'ziga ishonch va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda ijobiy psixologik iqlimning o'rni tahlil qilinadi. Tarbiyachi va ota-ona hamkorligi, bolalar o'rtasida sog'lom muloqotni shakllantirish hamda zo'ravonlikning oldini olish masalalari ko'rib chiqiladi. Xavfsiz psixologik muhit bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi va ta'lim jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantiruvchi muhim omil sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, xavfsiz psixologik muhit, ijobiy psixologik iqlim, emotsional barqarorlik, bolalar rivojlanishi, ijtimoiy moslashuv, o'ziga ishonch, muloqot ko'nikmalari, tarbiyachi roli, ota-ona hamkorligi, zo'ravonlikning oldini olish, pedagogik muhit, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlar.

Abstract: The pedagogical and social significance of creating a safe psychological environment in preschool education institutions is examined. The role of a positive psychological climate in developing emotional stability, self-confidence, and social adaptation skills in early childhood is analyzed. Particular attention is given to teacher-parent cooperation, the formation of healthy communication among children, and the prevention of violence. A safe psychological environment is substantiated as a key factor in ensuring comprehensive child development and fostering a positive attitude toward the educational process.

Key words: preschool education institutions, safe psychological environment, positive psychological climate, emotional stability, child development, social adaptation, self-confidence, communication skills, teacher role, parent cooperation, violence prevention, pedagogical environment, personality development, social relations.

Аннотация: Рассматриваются педагогические и социальные аспекты формирования безопасной психологической среды в организациях дошкольного образования. Анализируется значение положительного психологического климата в развитии эмоциональной устойчивости, уверенности в себе и навыков социальной адаптации детей раннего возраста. Освещаются вопросы взаимодействия воспитателей и родителей, формирования культуры здорового общения между детьми, а также предупреждения насилия. Обосновывается, что безопасная психологическая среда является важным фактором всестороннего развития ребёнка и формирования положительного отношения к образовательному процессу.

Ключевые слова: дошкольные образовательные организации, безопасная психологическая среда, положительный психологический климат, эмоциональная устойчивость, развитие детей, социальная адаптация, уверенность в себе, коммуникативные навыки, роль воспитателя, взаимодействие с родителями, профилактика насилия, педагогическая среда, развитие личности, социальные отношения.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bolaning psixologik rivojlanishi jadal kechadi, u atrof-muhitni faol o'rganadi, voqea-hodisalarni idrok etadi hamda o'zining dastlabki hayotiy tajribasini shakllantira boshlaydi. Bola kattalar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlarini asta-sekin o'zlashtiradi hamda axloqiy qadriyatlar asosida o'z shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishga harakat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotida yaratiladigan psixologik muhit bolaning nafaqat hozirgi holatiga, balki uning kelajakdagi shaxsiy rivojlanish trayektoriyasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy,

barqaror va xavfsiz psixologik muhit bolaning emotsional holatini mustahkamlashga xizmat qiladi, unda o'ziga ishonch, mustaqil fikrlash va tashabbuskorlik kabi muhim sifatning shakllanishiga zamin yaratadi. Aksincha, salbiy yoki beqaror psixologik muhit bola rivojlanishida qo'rquv, ishonchsizlik va ijtimoiy chekinish kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanishi va ularda xavfsiz psixologik muhitni shakllantirish masalasi psixolog va pedagog olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

V.M. Karimova 2018-yilda nashr etilgan "Psixologiya" asarida shaxsning emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi bevosita muhit bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

E.G'. G'oziev 2019-yildagi "Umumiy psixologiya" asarida bola rivojlanishida ijtimoiy muhitning yetakchi rol o'ynashini asoslab, ayniqsa, maktabgacha yoshda ijobiy psixologik iqlimning ahamiyatini alohida ko'rsatadi.

Z.T. Nishanova 2020-yilda chop etilgan "Rivojlanish psixologiyasi" darsligida esa bolalarda o'ziga ishonch, emotsional muvozanat va kommunikativ ko'nikmalar shakllanishi uchun qo'llab-quvvatlovchi muhit zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, rus pedagogika va psixologiya maktabi vakillari ham mazkur muammoni chuqur tadqiq etgan.

I.P. Podlasy 2017-yilda nashr etilgan "Pedagogika" asarida ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik muhitning ijobiy tashkil etilishiga bog'liqligini qayd etadi.

L.S. Vygotskiy 2016-yilda chop etilgan "Pedagogik psixologiya" asarida esa bola rivojlanishida ijtimoiy muhit va kattalar bilan muloqotning hal qiluvchi o'rin tutishini, ayniqsa, yaqin rivojlanish zonasi orqali psixik rivojlanish tezlashishini asoslab beradi.

Ushbu ilmiy qarashlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhitni yaratish zarurligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ma'lumotlar kompleks yondashuv asosida yig'ildi va tahlil qilindi. Avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar, psixologlar hamda ota-onalar ishtirokida so'rovnoma va anketa usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali xavfsiz psixologik muhitning mavjud holati, bolalarning emotsional barqarorligi, o'ziga ishonchi hamda ijtimoiy moslashuv darajasi haqida birlamchi ma'lumotlar to'plandi. Shuningdek, bevosita kuzatish metodi asosida bolalarning guruhdagi xulq-atvori, o'zaro munosabatlari va tarbiyachi bilan muloqoti tizimli ravishda o'rganildi. Kuzatish jarayonida bolalarning psixologik holatini aks ettiruvchi belgilar maxsus mezonlar asosida qayd etildi.

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy va tavsifiy tahlil usullaridan foydalanildi. Turli guruhlarda shakllangan psixologik muhit ko'rsatkichlari o'zaro solishtirildi hamda ularning bolalar rivojlanishiga ta'siri aniqlashtirildi. Natijalar umumlashtirish va tizimlashtirish asosida qayta ishlanib, asosiy tendensiyalar ajratib olindi. Shu bilan birga, statistik umumlashtirish elementlari qo'llanilib, olingan natijalarning ishonchligi ta'minlandi. Tahlil jarayonida bolalarning emotsional holati, kommunikativ faolligi va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, xavfsiz psixologik muhitning pedagogik ahamiyati ilmiy asosda yoritib berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xavfsiz psixologik muhit tushunchasi maktabgacha ta'lim jarayonida bolaga nisbatan hurmat, mehr-oqibat, adolat va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan pedagogik yondashuvlar tizimini anglatadi. Bunday muhitda tarbiyachi va bola o'rtasida ishonchga asoslangan munosabat shakllanadi, har bir bola o'zini qadrligi va himoyalangan his qiladi. Bu esa uning emotsional barqarorligini ta'minlab, stress va xavotir holatlarini kamaytiradi.

Shuningdek, xavfsiz psixologik muhit bolalarning kognitiv faolligini oshiradi, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bola xatolardan qo'rqmasdan harakat qilishga, yangi bilimlarni erkin o'zlashtirishga va o'z fikrini bemalol ifoda etishga o'rganadi. Natijada ta'lim jarayoni samaradorligi oshadi hamda bolada ijobiy o'quv motivatsiyasi shakllanadi.

Bundan tashqari, bunday muhit bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U tengdoshlari bilan sog'lom munosabatlar o'rnatadi, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va jamoada o'z o'rnini topishga intiladi. Shu bilan birga, nizoli vaziyatlarni to'g'ri hal etish, empatiya va o'zaro hurmat kabi ijtimoiy kompetensiyalar ham shakllanadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhit yaratish bolaning har tomonlama – emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa uning kelajakdagi ta'lim jarayonlariga muvaffaqiyatli moslashishi va jamiyatda o'z o'rnini topishida mustahkam asos bo'lib qoladi.



Xavfsiz psixologik muhit maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy faoligi va shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. U bolalar o'z fikr va his-tuyg'ularini erkin ifoda eta oladigan, o'zini kamsitilish yoki jazolanishdan qo'rqmasdan tutadigan, shuningdek, o'z imkoniyatlarini sinab ko'rishga tayyor bo'ladigan ijtimoiy-pedagogik sharoit sifatida tavsiflanadi.

Bunday muhitda bola o'zini psixologik jihatdan himoyalangan his qiladi, bu esa unda ishonch, xavfsizlik va ichki erkinlik tuyg'usini shakllantiradi. Natijada bola ta'lim jarayonida faolroq ishtirok etadi, yangi bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabat bildiradi hamda xatolardan qo'rqmasdan mustaqil harakat qilishga intiladi.

Xavfsiz psixologik muhitning muhim jihatlaridan biri tarbiyachi va bola o'rtasidagi munosabatlarning insonparvarlik tamoyillariga asoslanishidir. Bunda tarbiyachi bolaga do'stona, mehribon va qo'llab-quvvatlovchi yondashuvni namoyon etadi, uning individual psixologik, yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga oladi. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishi va ehtiyojlariga mos yondashuv qo'llanilishi uning o'zini qadrlangan shaxs sifatida his qilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, bunday muhitda bolalar o'rtasida o'zaro hurmat, hamkorlik va ijobiy muloqot madaniyati shakllanadi. Bu esa guruh ichidagi psixologik iqlimni barqarorlashtirib, nizoli vaziyatlar va salbiy xulq-atvor holatlarining oldini olishga yordam beradi. Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit qaror topadi.

Xavfsiz psixologik muhit maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim omil bo'lib, ularning emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday muhitda bola o'zini erkin va himoyalangan his qilgani sababli uning psixologik holati barqarorlashadi hamda ichki stress va xavotir darajasi sezilarli darajada kamayadi.

Avvalo, xavfsiz psixologik sharoit bolalarning emotsional barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bola o'z his-tuyg'ularini ochiq ifoda etishni o'rganadi, kayfiyatini boshqarish va atrofdagilar bilan ijobiy munosabat o'rnatish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa uning ruhiy muvozanatini saqlashga yordam beradi.

Shuningdek, bunday muhit bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bola o'z fikri va harakatlari qadrlanayotganini his qilganida, unda mustaqillik, tashabbuskorlik va qaror qabul qilishga bo'lgan ishonch kuchayadi. Natijada u yangi vazifalarni bajarishda dadilroq bo'ladi.

Xavfsiz psixologik muhit muloqot va nutq ko'nikmalarining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola tengdoshlari va tarbiyachilar bilan erkin muloqotga kirishadi, fikrini to'liq ifoda etishga harakat qiladi hamda so'z boyligini kengaytiradi. Bu esa uning kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi.

Bundan tashqari, mazkur muhit ijodiy fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantirishga sharoit yaratadi. Bola turli vaziyatlarga noodatiy yechim topishga urinadi, o'yin va ta'lim jarayonida yangilik yaratishga intiladi hamda mustaqil fikrlashga o'rganadi.

Eng muhim jihatlardan biri shundaki, bola o'zini xavfsiz his qilgan sharoitda yangi bilimlarni tezroq va samaraliroq o'zlashtiradi. U ta'lim jarayoniga faol qo'shiladi, qiziqishi ortadi va o'qishga nisbatan ijobiy motivatsiya shakllanadi. Natijada bolaning umumiy rivojlanish darajasi sezilarli darajada yuksaladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ijobiy va xavfsiz psixologik muhitni shakllantirish bolalar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli nizoli vaziyatlar, kamsitish holatlari hamda zo'ravonlik (bullying)ning oldini olishda muhim profilaktik omil hisoblanadi. Bunday muhitda bolalar o'zaro hurmat, tenglik va hamkorlik tamoyillarini asosida munosabat qurishga o'rganadilar.

Ijobiy psixologik iqlim mavjud bo'lgan guruhlarda bolalar o'zini erkin his qilgani sababli agressiv xulq-atvor darajasi sezilarli kamayadi. Ular o'z his-tuyg'ularini to'g'ri ifoda etish, kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish va boshqalarning fikrini hurmat qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtiradi.

Bu jarayonda tarbiyachining o'rni juda muhim bo'lib, uning adolatli, muvozanatli va qo'llab-quvvatlovchi yondashuvi bolalar xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachi tomonidan qo'llaniladigan ijobiy kommunikatsiya usullari, har bir bolaga teng e'tibor qaratish va nizoli vaziyatlarda to'g'ri pedagogik yechim topish salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bolalarda empatiya, ya'ni boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyatini rivojlantirish ham zo'ravonlikning kamayishida muhim ahamiyatga ega. Natijada maktabgacha ta'lim muassasasida sog'lom, xavfsiz va barqaror ijtimoiy-psixologik muhit shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhitni shakllantirish jarayonida tarbiyachi va otanonaning o'rni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, bu ikki subyektning hamkorligi bolaning barqaror psixologik rivojlanishini ta'minlaydi. Ayniqsa, tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonining bevosita tashkilotchisi sifatida yetakchi rolni bajaradi.

Tarbiyachi bolalar bilan doimiy va tizimli muloqot o'rnatadi, ularning emotsional holatini kuzatadi hamda individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda pedagogik yondashuvni amalga oshiradi. Uning mehribon, sabrli va qo'llab-quvvatlovchi munosabati bolalarda ishonch tuyg'usini shakllantiradi hamda o'zini erkin ifoda etish

imkonini yaratadi. Shuningdek, tarbiyachi har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo'llashi orqali ularning psixologik xavfsizligini ta'minlaydi.

Ota-onalar esa bolaning ilk ijtimoiy muhiti sifatida uning xarakteri va xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi samarali hamkorlik bolaning tarbiyasida yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Ota-onalarning ta'lim jarayoniga faol jalb etilishi, tarbiyachi bilan muntazam muloqotda bo'lishi hamda bolaga nisbatan bir xil talab va qadriyatlarni qo'llashi psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

Natijada tarbiyachi va ota-onaning uyg'un hamkorligi bolada ijobiy shaxsiy sifatlarning shakllanishiga, uning o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhitni shakllantirish bolalarning har tomonlama – emotsional, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. Bunday muhitda bola o'zini psixologik jihatdan himoyalangan his qiladi, erkin fikr bildirishga, mustaqil harakat qilishga hamda yangi bilimlarni faol o'zlashtirishga intiladi.

Shuningdek, xavfsiz psixologik muhit ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, bolalarda o'qishga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Bu esa ularning kelgusida ta'lim bosqichlariga moslashishini osonlashtiradi va ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Mazkur jarayonda tarbiyachi, ota-ona va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning yagona tarbiyaviy yondashuvi bolaning shaxs sifatida to'g'ri shakllanishini ta'minlaydi. Shu bois, sog'lom va xavfsiz psixologik muhit yaratish barcha ta'lim subyektlarining umumiy mas'uliyati sifatida qaralishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xavfsiz psixologik muhitni shakllantirish samaradorligini oshirish uchun bir qator muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim. Avvalo, tarbiyachilarning kasbiy mahoratini muntazam ravishda oshirib borish, ularni zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar bilan tanishtirish hamda amaliy faoliyatga innovatsion usullarni tatbiq etish zarur hisoblanadi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini oshirish bilan birga, bolalar bilan ishlashda samarali muloqot va to'g'ri pedagogik yondashuvni ta'minlaydi.

Shuningdek, guruhda ijobiy, do'stona va o'zaro ishonchga asoslangan psixologik muhitni barqaror shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday muhit bolalarning o'zini erkin his qilishi, faol ishtirok etishi va ta'lim jarayoniga qiziqishi ortishiga xizmat qiladi.

Bolalar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zo'ravonlik va kamsitish holatlarining oldini olish, shuningdek, yuzaga kelgan nizolarni tinch va pedagogik jihatdan to'g'ri yo'l bilan hal etish ham muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda tarbiyachining adolatli va muvozanatli yondashuvi asosiy o'rin tutadi.

Bundan tashqari, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga faol jalb etish hamda yagona tarbiyaviy yondashuvni shakllantirish bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarda emotsional intellekt, muloqot madaniyati va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ham xavfsiz psixologik muhitni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, bolalarning ruhiy holatini muntazam kuzatib borish, ularning ehtiyoj va hissiyotlariga e'tibor qaratish hamda zarur hollarda psixologik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4646908>
3. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018-yil.
4. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2019-yil.
5. Nishanova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020-yil.
6. Podlasy I.P. Pedagogika. – Moskva: Vlados, 2017-yil.
7. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 2016-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.